

**TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI
KOMPLEKS INDIKATORLAR TIZIMI ASOSIDA BAHOLASH
METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH****IMPROVING THE METHODOLOGY FOR ASSESSING THE
FINANCIAL STABILITY OF COMMERCIAL BANKS BASED ON
A SYSTEM OF COMPREHENSIVE INDICATORS****¹Teshaboyeva Mohigul
Eldorjon qizi**

¹Farg'ona davlat texnika universiteti magistri "Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)". **ORCID:** 0009-0002-9533-4427,
G-mail: mohigulteshaboyeva0599@gmail.com

**Annotatsiya
Abstract**

Uzb. - Mazkur maqolada tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini kompleks indikatorlar tizimi asosida baholash metodologiyasini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Banklar moliyaviy barqarorligini baholashning amaldagi usullari tahlil qilinib, ularning afzalliklari va cheklovlari aniqlangan. Tadqiqotda kapital yetariligi, likvidlik, aktivlar sifati, aktivlar rentabelligi (ROA), xususiy kapital rentabelligi (ROE) hamda sof foyda o'sish sur'atini o'z ichiga olgan kompleks indikatorlar tizimi taklif etilgan. Taklif etilgan metodologiya Hamkorbank ATBning 2024-2025-yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlari misolida amaliy jihatdan baholanishi nazarda tutilgan. Tadqiqot natijalari tijorat banklarida moliyaviy barqarorlikni baholashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish hamda boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Eng. - This article examines the improvement of the methodology for assessing the financial stability of commercial banks based on a comprehensive system of indicators. Existing approaches to assessing financial stability are analyzed, and their strengths and limitations are identified. The study proposes a comprehensive assessment system including capital adequacy, liquidity, asset quality, return on assets (ROA), return on equity (ROE), and profit growth. The proposed methodology is intended to be evaluated using the financial indicators of Hamkorbank JSCB for 2024-2025. The findings contribute to improving the methodological framework for financial stability assessment and enhancing managerial decision-making in commercial banks.

**Kalit so'zlar:
Keywords:**

- ❖ *tijorat banki, moliyaviy barqarorlik, kompleks indikatorlar tizimi, kapital yetariligi, likvidlik, aktivlar sifati, ROA, ROE, Hamkorbank ATB.*
- ❖ *commercial bank, financial stability, comprehensive indicator system, capital adequacy, liquidity, asset quality, ROA, ROE, Hamkorbank.*

Kirish.

So'nggi yillarda bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalasi iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Banklarning moliyaviy barqarorligi moliya bozorlarining

ishonchliligini ta'minlash, investitsiya faolligini oshirish hamda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholashda Basel III talablari, CAMELS tizimi hamda moliyaviy koeffitsientlar keng qo'llaniladi. Biroq ushbu yondashuvlar bank faoliyatini ko'pincha alohida ko'rsatkichlar asosida baholaydi. Natijada bankning umumiy moliyaviy holatini kompleks aks ettiruvchi baholash mexanizmini takomillashtirish zarurati yuzaga keladi

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunida banklar faoliyatining huquqiy asoslari, bank tizimining barqarorligini ta'minlash, kapital yetarliligini saqlash, risklarni boshqarish hamda omonatchilar manfaatlarini himoya qilishning asosiy tamoyillari belgilangan. Mazkur qonun tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim huquqiy asosi hisoblanadi [1].

Mazkur maqolada tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashning amaldagi yondashuvlari tahlil qilinib, kapital yetarliligi, likvidlik, aktivlar sifati, ROA, ROE hamda sof foyda o'sish sur'atini yagona tizimda birlashtiruvchi kompleks indikatorlar asosidagi baholash metodologiyasi taklif etiladi. Taklif etilgan yondashuv Hamkorbank ATBning 2024-2025-yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlari asosida amaliy jihatdan baholanadi hamda uning bank moliyaviy barqarorligini kompleks baholashdagi afzalliklari asoslab beriladi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini kompleks indikatorlar tizimi asosida baholash metodologiyasini takomillashtirish hamda uning amaliy samaradorligini Hamkorbank ATB misolida asoslashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholash masalalari bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda banklarning moliyaviy barqarorligi kapital yetarliligi, likvidlik, aktivlar sifati, rentabellik hamda risklarni

boshqarish ko'rsatkichlari asosida baholanadi. Xususan, Basel Committee on Banking Supervision tomonidan ishlab chiqilgan Basel III standartlari bank kapitalining yetarliligi va likvidligini ta'minlash orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan. Shuningdek, CAMELS modeli bank faoliyatini kapital, aktivlar sifati, boshqaruv, daromadlilik, likvidlik va bozor risklariga sezgirlik mezonlari asosida kompleks baholash imkonini beradi.

Ilmiy adabiyotlarda Rose va Hudgins bank faoliyatini tahlil qilishda rentabellik ko'rsatkichlari hamda risklarni boshqarish tizimining muhimligini asoslab bergan [9]. Saunders va Cornett esa bank risklarini boshqarish va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ilmiy jihatdan yoritgan [10]. Ularning tadqiqotlarida kapitalning yetarliligi va likvidlik ko'rsatkichlari bankning uzoq muddatli barqaror rivojlanishining asosiy omillari sifatida baholanadi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmonida bank-moliya tizimini isloh qilish, moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish, banklar kapitallashuvini mustahkamlash hamda xalqaro standartlarga mos korporativ boshqaruv va risklarni boshqarish tizimini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur yo'nalishlar tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholash metodologiyasini takomillashtirishning dolzarbligini yanada oshiradi [2].

O'zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlarida ham bank tizimini rivojlantirish, kapitalni boshqarish, likvidlikni ta'minlash hamda banklar moliyaviy barqarorligini baholash masalalari keng o'rganilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida moliyaviy barqarorlik alohida ko'rsatkichlar kesimida tahlil qilingan bo'lib, ularni yagona kompleks indikatorlar tizimiga integratsiyalash orqali baholash metodologiyasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotda kapital yetarliligi, likvidlik, aktivlar sifati, ROA,

ROE va sof foyda o'sish sur'atini yagona kompleks baholash tizimiga birlashtiruvchi metodologiya taklif etiladi. Mazkur yondashuv bankning moliyaviy barqarorligini yanada to'liq va obyektiv baholash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishda umumilmiy hamda iqtisodiy-statistik tadqiqot usullaridan foydalanildi. Xususan, tahlil jarayonida qiyosiy tahlil, gorizont va vertikal tahlil, moliyaviy koeffitsientlar usuli hamda kompleks baholash yondashuvi qo'llanildi.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashda kapital yetarliligi (CAR), likvidlik (LR), aktivlar sifati (AQ), aktivlar rentabelligi (ROA), xususiy kapital rentabelligi (ROE) hamda sof foyda o'sish sur'ati (PG) asosiy indikatorlar sifatida tanlandi. Mazkur ko'rsatkichlar xalqaro bank amaliyotida qo'llaniladigan Basel III tamoyillari va CAMELS tizimi asosida tanlab olindi.

Tadqiqotning amaliy qismida Hamkorbank ATBning 2024-2025-yillardagi moliyaviy hisobotlari asosida tanlangan ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Olingan natijalarni umumlashtirish maqsadida muallif tomonidan taklif etilgan. Tijorat banklari moliyaviy barqarorligi indeksi (TBMBI)dan foydalanildi. Mazkur yondashuv bankning moliyaviy holatini alohida ko'rsatkichlar bo'yicha emas, balki ularning o'zaro bog'liqligi asosida kompleks baholash imkonini beradi [3].

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholash maqsadida Hamkorbank ATBning 2024-2025-yillardagi moliyaviy hisobotlari tahlil qilindi. Tahlil jarayonida bank faoliyatini tavsiflovchi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar tanlab olinib, ularning o'zgarish dinamikasi baholandi. Moliyaviy barqarorlikni kompleks baholash uchun kapital yetarliligi, likvidlik, aktivlar sifati, aktivlar rentabelligi (ROA), xususiy kapital rentabelligi (ROE) hamda sof foyda o'sish sur'ati asosiy indikatorlar sifatida qabul qilindi.

1-jadval

Hamkorbank ATBning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari* (2024-2025-yillar)

Ko'rsatkich	2024 (trln so'm)	2025 (trln so'm)	Mutlaq o'zgarish	O'sish sur'ati (%)
Jami aktivlar	36,02	46,57	10,55	29,3
Jami majburiyatlar	30,45	39,37	8,92	29,3
Xususiy kapital	5,57	7,20	1,63	29,3
Sof foyda	1,51	1,79	0,28	18,7

*Manba: Hamkorbank ATBning 2024 va 2025-yillar IFRS konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Hamkorbank ATBning 2024-2025-yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlari ijobiy rivojlanish tendensiyasini namoyon etgan. Tahlil natijalari bankning aktivlari, kapital bazasi hamda daromadlilik ko'rsatkichlari barqaror o'sganligini ko'rsatadi [4].

Jami aktivlar 2024-yildagi 36,02 trln so'mdan 2025-yilda 46,57 trln so'mga yetib, 10,55 trln so'mga yoki 29,3 foizga oshgan. Mazkur o'sish bankning moliyaviy resurslari

hajmi kengayganini, kreditlash va investitsiya faoliyati rivojlanganini hamda bankning bozor ulushi mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Aktivlar hajmining ortishi bankning daromad olish salohiyatini oshirishi bilan birga, risklarni samarali boshqarishni ham talab etadi.

Jami majburiyatlar hisobot davrida 30,45 trln so'mdan 39,37 trln so'mga ko'payib, 8,92 trln so'm yoki 29,3 foizlik o'sishni qayd etdi. Ushbu holat bankning jalb qilingan mablag'lari hajmi ortganligini anglatadi.

Majburiyatlar o‘shishi asosan depozit bazasining kengayishi va boshqa moliyalashtirish manbalarining ko‘payishi bilan izohlanadi. Biroq majburiyatlarning o‘shishi kapital o‘shishi bilan mutanosib bo‘lgani bankning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmagan.

Xususiy kapital 5,57 trln so‘mdan 7,20 trln so‘mga oshib, 1,63 trln so‘m yoki 29,3 foizga ko‘paygan. Kapitalning o‘shishi bankning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish, tavakkalchiliklarni qoplash imkoniyatini oshirish hamda xalqaro prudensial me‘yorlarga muvofiqligini ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi. Kapital bazasining mustahkamlanishi bankning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta‘minlashga xizmat qiladi [5].

Hisobot davrida sof foyda 1,51 trln so‘mdan 1,79 trln so‘mga yetib, 0,28 trln so‘m yoki 18,7 foizga oshgan. Sof foydaning ijobiy o‘shish sur‘ati bankning operatsion samaradorligi va daromadlilik darajasi oshganligini ko‘rsatadi. Foydaning o‘shishi bankning ichki kapitalini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda kelgusida investitsiya va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun qo‘shimcha resurs yaratadi.

Umuman olganda, 2024–2025-yillarda Hamkorbank ATB faoliyatida kuzatilgan ijobiy moliyaviy o‘zgarishlar bankning moliyaviy salohiyati va barqarorligi mustahkamlanayotganidan dalolat beradi [6]. Biroq moliyaviy barqarorlikni faqat mutlaq ko‘rsatkichlar asosida baholash yetarli emas. Shu sababli keyingi bosqichda bank faoliyatining samaradorligini ROA, ROE, kapital yetarliligi (CAR), likvidlik (LR) va aktivlar sifati (NPL) kabi nisbiy ko‘rsatkichlar orqali kompleks baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Hamkorbank ATB moliyaviy barqarorligini rentabellik va kapital ko‘rsatkichlari asosida baholash. Bankning moliyaviy barqarorligini baholashda mutlaq moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda nisbiy ko‘rsatkichlardan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aktivlar yoki kapital hajmining ortishi har doim ham bank faoliyati samaradorligi oshganligini anglatmaydi. Shu sababli tadqiqotda Hamkorbank ATBning moliyaviy natijalari aktivlar rentabelligi (ROA), xususiy kapital rentabelligi (ROE) hamda kapital yetarliligi (CAR) ko‘rsatkichlari orqali baholandi [7].

2-jadval

Hamkorbank ATBning moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari* (2024–2025-yillar)

Ko‘rsatkich	Formula	2024	2025	O‘zgarish
ROA (%)	$Sof\ foyda / O'rtacha\ jami\ aktivlar \times 100$	4,19	3,85	-0,34
ROE (%)	$Sof\ foyda / O'rtacha\ xususiy\ kapital \times 100$	27,11	24,86	-2,25
Kapitalning aktivlardagi ulushi (%)	$Xususiy\ kapital / Jami\ aktivlar \times 100$	15,46	15,46	0,00

*Manba: Hamkorbank ATBning 2024–2025-yillar moliyaviy hisobotlari asosida muallif hisob-kitobi.

2-jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, Hamkorbank ATBning aktivlar rentabelligi (ROA) 2024-yildagi 4,19 foizdan 2025-yilda 3,85 foizga kamaygan. Bu holat aktivlar hajmining sof foydaga nisbatan tezroq o‘sganligi bilan izohlanadi. Xususiy kapital rentabelligi (ROE) ham 27,11 foizdan 24,86 foizga pasaygan bo‘lsa-da, mazkur ko‘rsatkich bank kapitalidan foydalanish samaradorligi yuqori darajada

saqlanayotganini ko‘rsatadi. Kapitalning aktivlardagi ulushi esa 15,46 foiz darajasida barqaror bo‘lib, bank kapital bazasining yetarliligini ifodalaydi [8, 9].

Taklif etilayotgan kompleks indikatorlar tizimi asosida moliyaviy barqarorlikni baholash. Tadqiqot natijalariga asoslanib, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini kompleks baholash uchun muallif tomonidan Tijorat banklari moliyaviy barqarorligi indeksi

(TBMBI) taklif etiladi. Mazkur indeks bankning moliyaviy holatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlarni yagona integral baholash tizimiga birlashtirish imkonini beradi. Mavjud metodikalardan farqli ravishda, taklif etilgan

yondashuv mutlaq moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda rentabellik, kapital yetariligi va likvidlik ko'rsatkichlarini ham o'zaro bog'liq holda baholashga asoslanadi.

3-jadval

Taklif etilayotgan TBMBI kompleks indikatorlar tizimi*

Indikator	Belgisi	Vazni	Baholashdagi ahamiyati
Kapital yetariligi	CAR	0,25	Moliyaviy xavfsizlik darajasini belgilaydi
Likvidlik koeffitsienti	LR	0,20	To'lovga qobiliyatlikni tavsiflaydi
Aktivlar sifati	AQ	0,20	Kredit riski darajasini baholaydi
Aktivlar rentabelligi	ROA	0,15	Aktivlardan foydalanish samaradorligini ko'rsatadi
Xususiy kapital rentabelligi	ROE	0,10	Kapitaldan foydalanish samaradorligini ifodalaydi
Sof foyda o'sish sur'ati	PG	0,10	Moliyaviy natijalar barqarorligini baholaydi
Jami	—	1,00	—

*Manba: Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif ishlanmasi.

Taklif etilgan indeks quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$TBMBI = 0,25CAR + 0,20LR + 0,20AQ + 0,15ROA + 0,10ROE + 0,10PG$$

bu yerda: TBMBI – Tijorat banklari moliyaviy barqarorligi indeksi;

Vazn koeffitsientlari ekspert baholash usuli asosida shakllantirildi [9].

Jadval tahlili: 3-jadvalda keltirilgan kompleks indikatorlar tizimi bank moliyaviy barqarorligini turli yo'nalishlar bo'yicha baholash imkonini beradi. Taklif etilgan modelda kapital yetariligi (CAR) eng yuqori – 0,25 vaznga ega bo'lib, bu bankning moliyaviy xavfsizligi va risklarni qoplash qobiliyatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich ekanligi bilan izohlanadi. Likvidlik va aktivlar sifati ko'rsatkichlariga 0,20 dan vazn berilishi bankning qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish qobiliyati hamda kredit portfeli sifatining moliyaviy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatishi bilan asoslanadi.

Rentabellik ko'rsatkichlari – ROA va ROE – mos ravishda 0,15 va 0,10 vazn bilan baholangan. Bu ularning bank resurslari va kapitalidan foydalanish samaradorligini aks ettirishi bilan bog'liq. Sof foydaning o'sish sur'atiga ham 0,10 vazn ajratilib, bankning uzoq muddatli rivojlanish salohiyatini

baholashda qo'shimcha indikator sifatida qabul qilindi [11, 12].

Taklif etilgan TBMBI modeli bank faoliyatini alohida moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha emas, balki ularning o'zaro bog'liqligi asosida kompleks baholash imkonini beradi. Mazkur metodologiya moliyaviy risklarni erta aniqlash, boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini oshirish hamda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini monitoring qilish samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholashda faqat mutlaq moliyaviy ko'rsatkichlardan foydalanish bank faoliyatining haqiqiy holatini to'liq aks ettirmasligini ko'rsatdi. Shu sababli bankning kapital yetariligi, likvidligi, aktivlar sifati, rentabellik ko'rsatkichlari hamda moliyaviy natijalarini kompleks baholash zarurati mavjud.

Hamkorbank ATBning 2024–2025-yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili natijasida jami aktivlar, xususiy kapital va sof foyda hajmida ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatildi. Mazkur o'zgarishlar bankning moliyaviy salohiyati ortayotganligini ko'rsatsada, moliyaviy barqarorlikni baholashda faqat

mutlaq ko'rsatkichlarga tayanish yetarli emasligi aniqlandi. Rentabellik va kapital samaradorligi ko'rsatkichlarini ham kompleks baholash zarurligi asoslandi.

Tadqiqot davomida tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholash uchun Tijorat banklari moliyaviy barqarorligi indeksi (TBMBI) taklif etildi [12, 13]. Mazkur metodologiya kapital yetarliligi, likvidlik, aktivlar sifati, aktivlar rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi hamda sof foyda o'sish sur'atini yagona integral baholash tizimiga birlashtiradi. Taklif etilgan yondashuv bank faoliyatining moliyaviy holatini kompleks baholash, risklarni erta aniqlash va boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish imkonini beradi.

Olingan natijalar asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

❖ tijorat banklarida moliyaviy barqarorlikni baholashda kompleks indikatorlar tizimidan foydalanishni joriy etish;

❖ kapital yetarliligi, likvidlik va aktivlar sifati ko'rsatkichlari monitoringini kuchaytirish;

❖ banklarning rentabellik ko'rsatkichlarini strategik boshqaruv tizimiga integratsiya qilish;

❖ moliyaviy barqarorlikni baholashda taklif etilgan TBMBI indeksidan foydalanish orqali bank faoliyatini kompleks tahlil qilish amaliyotini rivojlantirish;

❖ raqamli tahlil vositalari va zamonaviy analitik platformalar yordamida moliyaviy monitoring tizimini takomillashtirish [14, 15].

Xulosa qilib aytganda, taklif etilgan metodologiya tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada ishonchli va kompleks baholash imkonini beradi hamda bank tizimida risklarni boshqarish va strategik rejalashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RBQ-580-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi to'g'risida yillik hisobot - 2024. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2024. - 156 b. - URL: <https://cbu.uz/uz/publications/reports/>
4. "Hamkorbank" ATB. 2025-yil yakunlari bo'yicha yillik hisobot. - Andijon: "Hamkorbank" ATB, 2025. - 196 b. - URL: <https://hamkorbank.uz>
5. Bazel bank nazorati qo'mitasi. Basel III: Inqirozdan keyingi islohotlarni yakunlash. - Bazel: Xalqaro hisob-kitoblar banki (Bank for International Settlements), 2019. - 152 b. - URL: <https://www.bis.org/bcbs/publ/d424.htm>
6. Bazel bank nazorati qo'mitasi. Bank nazoratining samarali amalga oshirilishi uchun asosiy tamoyillar (Core Principles for Effective Banking Supervision). - Bazel: Xalqaro hisob-kitoblar banki (Bank for International Settlements), 2023. - 86 b. - URL: <https://www.bis.org/bcbs/publ/d551.htm>
7. Xalqaro valyuta jamg'armasi. Global moliyaviy barqarorlik to'g'risidagi hisobot (Global Financial Stability Report). - Vashington, DC: Xalqaro valyuta jamg'armasi, 2024. - 104 b. - URL: <https://www.imf.org/en/Publications/GFSR>
8. Jahon banki. Global iqtisodiy istiqbollari (Global Economic Prospects). - Vashington, DC: Jahon banki, 2024. - 238 b. - URL: <https://www.worldbank.org/en/publication/global-economic-prospects>
9. Rose P. S., Hudgins S. C. Bank Management and Financial Services. - 10th ed. - New York: McGraw-Hill Education, 2021. - 640 p.
10. Saunders A., Cornett M. M. Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. - 10th ed. - New York: McGraw-Hill Education, 2022. - 720 p.

11. Mishkin F. S. *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. – 13th ed. – Harlow: Pearson, 2022. – 720 p.
12. Kohn M. *Financial Institutions and Markets*. – 4th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2021. – 768 p.
13. Hennie van Greuning H., Brajovic Bratanovic S. *Analyzing Banking Risk: A Framework for Assessing Corporate Governance and Financial Risk*. – 4th ed. – Washington, DC: World Bank Publications, 2020. – 488 p. OECD. (2023). *OECD Economic Outlook, 2023 (2)*. Paris: OECD Publishing.
14. Osiyo taraqqiyot banki. *Osiyo taraqqiyoti istiqbollari – 2024 (Asian Development Outlook 2024)*. – Manila: Osiyo taraqqiyot banki, 2024. – 376 b. URL: <https://www.adb.org/publications/asian-development-outlook-2024>